



## YOZUVCHI NIGOHIDA TAQDIR: “QARZGA OLINGAN UMR” ASARINING BADIY TAHLILI MISOLIDA

**Muallif:** Sobirova Nozima Aziz qizi<sup>1</sup>, Ismatova Shaxnoza Miraxmatovna<sup>2</sup>

**Affiliatsiya:** Ingliz tili 3-fakulteti fakulteti, 1-bosqich talabasi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15202306>

### ANNOTATSIYA

Qarzga olingan umr asari hayotda ko'plab qiyinchiliklarga uchragan oddiy odamlar hayoti haqida. Klerfe ismli o'rta yoshli poygachi sil xastaligiga chalingan go'zal bir qizni sevib qoladi. Voqealar davomida hayot haqiqatlari, murakkabliklar va yechimi yo'q muammolar yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qarzga olingan umr, Erix Mariya Remark, Klerfe, Lilian, Boris

“Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajodollar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev)

Erix Mariya Remark – urush, inson, muhabbat va hayot haqida yozgan asarlari bilan mashhurlikka erishgan qalamni o'tkir nemis yozuvchisi. O'zining “G'arbiy frontda o'zgarish yo'q”, “Qaytish”, “Uch og'ayni”, “Qarzga olingan umr”, “Tungi Parij osmoni” kabi qator romanlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallamoqda.

Remark (Remarque) yigirmanchi asr yozuvchisi bo'lsa-da, hozirgi kunda o'zbek kitobxonlari tomonidan ijobiy qabul qilindi va qizg'in bahs-munozalarlarga sabab bo'lishga ulgurdi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda, yosh kitobsevarlar orasida ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan “Qarzga olingan umr” asarini tahlil qilamiz.


Remark bu asarning nomini aynan “Qarzga olingan umr” deb atadi. Asarning mazmuni qarz, mablag' bilan bog'liq emas, albatta. Kitobda umr mazmuni, mohiyati, hayotning qadri, haqiqati haqida so'z boradi. Yozuvchi obrazlarning hissiyotlarini shu qadar aniq qilib yoritadiki, siz qahramonlar bilan birga kulasiz, kerak joyida yig'laysiz, ular his qilgan og'rinqi his qilasiz. Qisqa qilib aytganda, ular bilan birga yashaysiz.

Asarning ta'sirchanligini quyidagi jumlalar orqali his etish mumkin. “Rostdan ham, nega shunday emas? Nega qariymiz? Odam bir umr o'ttiz yosh bo'lib yashasa bo'lmaydimi? Keyin, birdan sakson yoshga kirsa-da, o'lib qolsa ham mayli”, – deydi E.M.Remark.

Tabiiyki, jumlanı o'qib, inson qalbida va xayolotida shunday bir hayqiriq uyg'onadi: "Nega umr chegaralangan?" "Nega vaqtga qarshi chiqa olmaymiz?" degan savollar tug'ula boshlaydi. Bu kitobni o'qib, shu "nega" larga javob topasiz.

Voqealar rivojiga to'xtaladigan bo'lsak, o'z zamonasining mashhur poygachasi bo'lgan Klerfe do'stining oldiga, tog'dagi sanatoriyaga boradi. U yerda sil kasaliga chalingan go'zal qiz – Lilian bilan tanishadi. Lilian bir xillikdan charchagan, o'limni kutib yotishni emas balki, chin ma'noda yashab qolishni istagan inson sifatida gavdalantiriladi. Sanatoriyada o'ziga o'xshab kasalikka chalinganlar ichidan eng yaxshi ko'rgani Boris ismli inson bo'ladi. U Lilianning sanatoriyadan tashqaridagi hayotga qaytishiga qarshi chiqadi. Ammo, Klerfening yordami bilan Lilian o'zida jasorat topib, eski hayotini tark etadi. Qolgan voqealar Nyuyork, Fransiya va boshqa shaharlarda davom etadi. O'limni tan olgan holda, yashash uchun kurashdan voz kechgan Lilian o'zini har qanday "arzon baxt" bilan xursand qilishga urinadi. Voqealar davomida esa Klerfe Lilianni sevib qoladi ammo, uning sevgisi qabul qilinmaydi. Shu joyida taqdir inson hislarini to'lqinlanib oqayotgan okeanga tushib qolgan xaschalik o'ynatadi, qadr-qimmatini tushiradi. Sevgi-ikki inson bir-birini chin dildan sevishigina emas, balki, hayot qonuniyatlariga bo'ysunish, birga yashash, vaziyatni qabul qilib, unga mos qaror chiqarish bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tadi. Klerfening muhabbat qabul qilinmadidi. Shu bilan birga rad ham etilmadi. Asarda o'ziga xos burilish yasaydigan nuqta bu Klerfening o'limi. U to'satdan, Lilian bir chaqaga arzitmaydigan poygada vafot etadi.

Operatsiyadan so'ng, murabbiysi rangi oqargan holda: "U o'ldi", degan gapi ko'zlariningizga yosh keltiradi. Lilianning aqli, ruxiyati va qalbi ortiq tirik insonlarnikidek bo'lmay qoladi. O'lim xabaridan bir necha soat ilgari, hammasidan voz kechmoqchi bo'lgan qiz birdan barchasini qabul qildi. Birga yashash, oila qurish, turg'un bir manzilda qolishga ko'nadi. Ammo, endi kech edi. Klerfe ortiq uning hayotida bo'lmaydi. Lilian bu voqealardan keyin o'zining eski sevgani Borisni qo'msadi. U bilan davom etishni xohladi. Taqdir bu safar Lilianning ustidan kulmadidi. U o'sha lahzaning o'zida Borisni uning qarshisidan uchrattdi. Ular birgalikda hammasiga taslim bo'lgan holda sanatoriyaga qaytishadi.



Qiz hayotida ko'plab o'limlarga guvoh bo'lgan edi. Umrining so'nggi lahzalarini siqilishga sarflay olmasdi. Boris bilan birga ishqiy munosabatni davom ettirishga harakat qildi. Klerfedan avval unga mehribonlik qilgan, asrab-avaylagan aynan Boris edi. Hech bo'limganda yolg'iz o'lim topishni sira istamasdi.

Lilian sanatoriyyada bir necha haftadan keyin yolg'iz holda, o'z xonasida jon taslim qiladi. Buni qarangki, o'lim ham ularning ustidan kulgandek, qiz ham Klerfedek tomoq orqali nafas olish yo'liga qon o'tib ketishi tufayli vafot etishadi.

Agar siz kitobning to'liq shaklini o'qib chiqmas ekansiz, Lilian Boris bilan ketgani uchun uni yomon ko'rib qolishingiz turgan gap. Lekin, uning tuyg'ularini his qilib turar ekansiz, bu eng to'g'ri tanlov ekaniga shubha qilmaysiz. Balki, bu uchun taqdirdan minnatdor bo'lasiz.

Kitob inson irodasi va taqdir o'rtasidagi ziddiyatlarga boy kurashni yaqqol yoritib beradi. Bizga berilgan umr vaqtincha ekanligini, qachondir yakun topishi aniq va ravshanligini anglab yetishimizga yordam beradi. Hayotda qanday yashash, vaqtimizni nimalarga sarflash esa o'z qo'limizda. Tug'ilgan bu dunyoyimiz biz uchun yaratilgan. Ortga qaytayotganda afsus-nadomat qilmaslik uchun mazmunli va o'zimiz xohlagandek hayot kechirishimiz kerak.

Kitob siz o'qishingiz kerak bo'lgan asarlardan biri. Uni o'qiyotganingizda o'tmishni o'ylab siqilish, keljakni o'ylab qayg'urish hissini bir zum bo'lsada xayolingizdan uloqtirib yuborasiz. Sizda faqatgina "hozir" bo'ladi. Bugun bilan yashaysiz, bugunning quvonchini his qilasiz.

Agar siz falsafa va ruhiyat haqida o'qishni xush ko'ruvchi kitobxon bo'lsangiz, bu asar aynan siz uchun. Ammo, urush hayoti, detektiv va sarguzashtli romanlarni xohlasangiz Remarkning yuqorida sanab o'tilgan asarlarini o'qishingizni tavsiya qilaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kunu.Uz. (2023). "Qarzga olingan umr" – hayotning qadrini anglatuvchi dars. Kun.uz. <https://kun.uz/59847504>
2. Daryo.Uz. (2020). Toshkentda Adiblar xiyoboni ochildi (foto). Daryo.uz. <https://daryo.uz/2020/05/20/toshkentda-adiblar-xiyoboni-ochildi-foto>
3. Remark, E. M. (2023). Qarzga olingan umr (1st ed.). Yangi asr avlod.
4. Wikimedia projects. (2023). Qarzga olingan umr. Vikipediya. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qarzga\\_olingan\\_umr](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qarzga_olingan_umr)
5. DostlikAKM. (2024). Erix Mariyaning "Qarzga olingan umr" kitobiga booktreyle. [Video]. YouTube. <https://www.youtube.com/watch?v=PGSZ4gO1N0A>